

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'TKIR HOSHIMOV  
HAYOTI VA IJODINI INTERFAOL USULDA O'RGANISH  
TAJRIBASIDAN**

*Muazzam Zokirjonova*

*NamDu magistranti*

**Annotatsiya**

Maqolada yozuvchi O'tkir Hoshimov ijodini ta'lif jarayonida o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi. Xususan, asarini o'rganishda uning mazmunini o'zlashtirishga doir savol-topshiriqlarni tuzish va foydalanish usullari ko'rsatiladi.

**Kalit so'z:** simfoniya, "Bumerang", "Zanjir", "Qiziqli keys", "Rolli o'yinlar", "So'z va surat", "Kichik gruhlarda ishlash", "Kim topqir", "Erkin yozish", savol va topshiriqlar.

**Annotation**

The article gives methodical recommendations for studying the work of the writer O'tkir Hoshimov in the educational process. In particular, methods of creating and using questions related to mastering its content are shown when studying his work.

**Key words:** symphony, "Boomerang" "Chain", "interesting case", "Role-playing games", "Word and picture", "working in small groups", "who is resourceful", "Free writing", questions and assignments

O'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shgan, uning yangicha tus olishiga, rivojlanib borishiga, tom ma'noda ildiz vazifasini bajargan ijodkorlarimizdan biri O'tkir Hoshimovning hayot yo'li, sermahsul ijod namunalari adabiyot deb atalmish daraxtni ozuqa bilan ta'minlagan ijodkor desak adashmagan bo'lamic. Yozuvchi haqida gap ketganda Umarali Normatovning quyidagi fikrlari harakerlidir. "Ilk qissasi "Cho'l havosidan" tortib, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobiga qadar, barcha asarlariga xos mushtarak holat shuki, ular betakror, benazir, sirli musiqiy ohang bilan yozilgan. Muallif qo`lidagi qalam go`yoki yozmaydi,

balkim qalami uchidan so`zlar musiqa singari quyilib keladi; uning hikoya va qissalari she`rdek, dostondek o`qiladi, ular yasama sozda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, romanlari ko`p ovozli simfoniyani eslatadi...”<sup>19</sup> Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, O`tkir Hoshimov asarlari xalqchilligi, yuksak mushohadaga boyligi bilan alohida ajralib turadi.

Ta'lim jarayonini olib borishda O`tkir Hoshimov asarlariga murojaat qilish o'quvchilarga katta tarbiya o'chog'i vazifasini o'taydi. Bu asarlarni o'qigan o'quvchida tabiiy ravishda onaga, vatanga, yor-u do`stga nisbatan cheksiz mehrmuhabbat, urush, jaholat kabi salbiy illatlarga nisbatan nafrat tuyg`usi shakllanadi. Demak, yozuvchi ijodini umumta'lim maktablaridan boshlab o'rgatish komil inson tarbiyasida tayanch nuqta vazifasini bajara oladi.

Adabiyot fanidan uzviylashtirilgan o'quv dasturiga ko'ra O`tkir Hoshimov hayoti va ijodi asarlarini quyidagicha rejalashtirishga harakat qildik:

5-sinf - O`tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari” asari - 3 soat

6-sinf - O'. Hoshimov. “Eng og'ir gunoh” hikoyasi - 3soat

10-sinf - “Ikki eshik orasi” romani – 4 soat

Ko'rinish turibdiki, deyarli har bir sinfda O`tkir Hoshimov ijodiga muurojaat qilinadi. Maqolamizga asosiy obyekt tariqasida 5-adabiyotidagi “Dunyoning ishlari”dan kichik hikoyalarni o'rganishni maqsad qildik. Xususan, “Alla”, “Gilam paypoq”, “O'ris bolaning oyisi”, “Qarz”, “Iltijo”, “Eng og'ir gunoh” shular jumlasidandir. Dars jarayonini tashkillashdan avval o'quvchilarga turli-xil rangli shakllar beriladi va ularga yozuvchi haqida nimalar o'rganmoqchi ekanliklarini yozish vazifasi topshiriladi. Dars so'ngida esa o'quvchilar o'zlariga berilgan shakllarda yozilgan savolga to'laqonli javob olganliklari yoki olmaganliklarini bildirib o'tishadi. Masalan, “Men bugungi darsdan O`tkir Hoshimovning boshqa yozuvchilarga o'xshamagan jihatlarini bilmoxchiman”, dars so'ngida esa “Men dars davomida O`tkir Hoshimovning ona obrazini ochib berishdagi mahoratini

<sup>19</sup> Normatov.U Yangi o`zbek adabiyoti. T.; Universitet, 2007-y, 149-b

o'rgandim”, yoki “O'zbek onalarning mehrini yanada chuqur his qildim”. Ahamiyatli jihat shundaki, bu usul orqali, avvalo, dars boshidanoq o'quvchilarning mavzuga bo'lgan diqqati oshadi, dars davomida o'zi yozgan savolga javob qidiradi va ijodkor haqida bildirilgan ma'lumotlarni o'zi erkin fikrlay olish qobiliyati shakllanadi va eng asosiysi, o'quvchilar o'zini nazorat qila oladilar, ya'ni o'zlaridagi qaysidir bir bo'shliqni to'ldirishga harakat qilishadi.

Darslikida shoirning hayot yo'li haqida qisqacha ma'lumot ham berilgan. Lekin o'qituvchi darslikda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni bolalarga o'rgatish uchun vaqt sarflamasligi kerak. Chunki 5-sinfda o'qiyotgan o'smir uchun yozuvchi hayotiga doir ma'lumotlarni o'zlashtirish shunchaki muhim emas. Bu ma'lumotlar bilan o'quvchilar mustaqil ravishda tanishishi va ularni o'zlashtirib olishi mumkin, lekin bu topshiriq majburiy emas, ixtiyoriy bo'lishi lozim. Bu borada so`z ketganda, quyidagi fikrlar ahamiyatlidir: “O'qituvchi shaxsiyatiga qo'yiladigan muhum talablardan biri shuki, u o'zi o'qiyotgan predmetni chuqur bilishi, uning metodikasini chuqur o'zlashtirib olgan bo`lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi, bolalarni shu predmetga bo'lgan qiziqishini oshiradi.”<sup>20</sup>

Uch soat vaqt ajratilgan “Dunyoning ishlari” asarini 5-sinflarda o'rgatishda “Bumerang”, “Zanjir”, “Qiziqli keys” usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda harakat qilishi, asar qahramonlari ruhiyatini ochib berish mahorati asarni to'laqonli tushunish va darsning qiziqarli bo'lishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi o'quvchi bilan O'tkir Hoshimov orasidagi masofani qisqartirish, ularni bir-biriga yaqinlashtirish uchun adibning o'quvchi yoshiga yaqin bolalik davridan ayrim xotiralarini aytib berishi mumkin.

Bundan tashqari harakatlar vositasida ham o'quvchilar mavzuni tushuna olishlari mumkin. Ya'ni “Rolli o'yinlar” usuli orqali shoirning hayoti va ijodini tanishtirishdan boshlash, ularning ijodkor haqida kengroq mulohaza qilishlariga va asarlarini tushuna olishlarida keng qo'l keladi. Bu jarayonda AKTdan foydalangan

<sup>20</sup> Pedagogika.KHK uchun darslik. T.; 2008-y, 28-29-b

holatda shoirning rasmlaridan ko'rsatib ma'lumot berish o'quvchilar ongida ijodkor portreti muhrlanib qolishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchi soatlik dars davomida hikoyalar tahliliga kirishiladi. Uni quyidagi: "So'z va surat", "Kichik gruhlarda ishlash", "Kim topqir", "Erkin yozish" kabi interfaol usullar asosida tashkil etish va bu jarayonda o'quvchilar faolligini oshirish uchun tasviriy san'at, tabiatshunoslik, axborot kommunikatsion texnologiyalari materialllaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Uchinchi dars soatida esa o'quvchilar erkin fikr bildirishadi, nutq boyligi, aktyorlik qobiliyatlarini ishga solishadi. So'ng, o'quvchilar bilan birqalikda, o'qituvchi o'zi uyda tuzib kelgan hamda darslikda berilgan savol-topshiriqlar yordamida asar tahliliga o'tiladi. Eng avvalo, badiiy asaming nomiga diqqat qaratiladi. Uning matn mazmuniga qay darajada mosligi haqida o'quvchilar fikri so'raladi, mulohazalari eshitiladi. Asar mazmunidan kelib chiqib hikoyaga boshqacha nom berishni so'rash ham mumkin. O'quvchilar faqat sarlavha taklif qilib qolmay, asarga nima uchun shunday nom berayotganini asoslashni so'rash kerak bo'ladi. Ular topgan sarlavhalarga o'rtoqlari tomonidan munosabat bildirilsa, yana-da yaxshi bo'ladi.

Hikoya tahlilidan so'ng uy vazifasi sifatida asami davom ettirish vazifasini topshirish mumkin. Asar qahramonlari keying hayotini o'quvchilar o'zlaricha tasavvur qilishlari, qarashlarini qog'ozga tushirishlari ularning fikr kishisi bo'lib shakllanishlariga ko'maklashadi. Zero professor Professor Q. Yo'ldoshev haqli ravishda ta'kidlaganidek, «Maktab adabiyoti ta'lim berish vositasi emas, balki tarbiyalash vositasidir. Aslida adabiyot tarixiga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'limgan o'quvchidan ko'ra, ayrim adabiy ma'lumotlar tizimini bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos eng insoniy fazilatlarni o'z tabiatiga singdira bilgan, sirtdan

araganda, nofaolday tuyuladigan o‘quvchilar jamiyatimiz uchun ko‘proq zarurdir...  
Badiiy adabiyot go‘zal dunyo ichida go‘zal ruhiy dunyo yaratishdir»<sup>21</sup>.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Normatov.U Yangi o`zbek adabiyoti. T.; Universitet, 2007-y,149-b
2. Pedagogika.KHK uchun darslik. T.; 2008-y, 28-29-b
3. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: O‘qituvchi, 1996.-30 -34- b.

---

<sup>21</sup> Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: O‘qituvchi, 1996.-30 -34- b.